26. Egallik qo'shimchalarini olgan taqlid so'zlar qaysi javobda berilgan?
A) Talonni uning orqasiga qo'yib shirq etkazdi.
B) Iliq ko'z yoshlari oppoq soqoliga duv-duv to'kildi.
C) Tugunchani yecha turib, yuragim shuv etib ketdi.
D) Latofatning yurak dukuri ham picha tinchidi.
27. Qaysi uslubdan boshqa barcha uslublar ijtimoiy hayotning ma'lum sohasi doirasida chegaralangan?
A) ommabop uslub B) ilmiy uslub
C) badiiy uslub D) so'zlashuv uslubi
28. Oramizda kasbdoshingiz yutug'i, obro'si, mol va dunyosini ko'rolmay, duch kelganga yomonlaguvchilar bor. Ular oldingizda yasama kulib, ta'zim ila bir xil so'zlaydi, ammo orqangizdan go'ringizga g'isht qalaydi. Bu gapdagi sodda yasama so'zlar sonini toping.
A) 5 ta B) 4 ta C) 3 ta D) 6 ta
29. Quyidagi qaysi so'zning paronimi mavjud?
A) shaydo B) adl C) drama D) harakat
30. Qaysi gapda metonimiya asosida ma'nosi ko'chgan so'z ega vazifasida kelgan?
A) Bola onasining oldiga tushib, pildirab ketdi.
B) Mabodo, "Besh bolali yigitcha" kelmadimi?
C) Navbatim sumka ko'targan "jinsi"dan keyin.
D) Ular cho'loqqa achinish bilan qarashdi.
31. Barcha odamlar Ollohdan Vatanini farovonlikda boshqa shaharlarga teng qilishni so'raydi-yu, tanlashga kelganda har qancha faqir-u ko'rimsiz bo'lsa-da, faqat o'z Vatanini tanlaydi. Bu she'riy parchada -yu yuklamasi qanday vazifada qo'llangan?
A) zidlov bog'lovchisi B) inkor bog'lovchisi
C) biriktiruv bog'lovchisi D) ayiruv bog'lovchisi
32. Qaysi adibning g'azali haqida "...nekinlik (optimizm) ruhi badiiy tasvirning kuchi bilan tezda o'quvchiga yuqadi. Bu she'r mashhurligining siri ham - shunda" deya ta'rif berilgan?
A) Furqat B) Lutfiy C) Bobur D) Fuzuliy
33. Uyqu va oromni o'ylab bugungi ishni ertaga qoldirma. Badbaxt shunday kishiki, ishining oqibatini o'ylamaydi, gunoh ishlardan o'zini tiymaydi. Barchani birdek sev, biror kishi baloga duchor bo'lsa, unga ko'maklash. Ushbu parchadagi aniqlovchili birikmalar sonini aniqlang.
A) 4 B) 5 C) 6 D) 3
34. O'lmas Umarbekovning qaysi asarida yoshgina go'zal ayolning sirli o'limi sabablarini ochish, fojia manbalarini o'rganish, qotillarni aniqlash barobarida asar qahramonlarining ma'naviy qiyofalari oydinlasha boradi?
A) "Urush farzandi" B) "Yoz yomg'iri"
C) "Kimning tashvishi yo'q" D) "Fotima va Zuhra"
35. Yashash, bu - orzular qanotin kermoq, Yashash, bu - muhabbat gullarin termoq... Ushbu she'riy parchada qo'llangan sodda yasama fe'llar miqdorini aniqlang.
A) 3 B) 5 C) 2 D) 7
36. Tinish belgilari bilan bog'liq xatolik mavjud bo'lgan gapni aniqlang.
A) Insonning nima ish qilayotganiga qarab, uning kimligini aytib bersa bo'ladi.
B) Yurgan - daryo, o'tirgan - bo'yra.
C) Onaga eng ulug' zotga ehtirom chinakam insoniylik sanaladi.
D) Biz - yoshlar - millatning tayanchi, Vatanning ishongan tog'larimiz.
- TARIX
37. Jung'oriya (Oyrat) xonligi tashkil topgan hududlarni aniqlang.
A) Shimoliy va Markaziy Mo'g'uliston
B) Shimoliy va G'arbiy Mo'g'uliston
C) Janubiy va Sharqiy Mo'g'uliston
D) Oltoy va Sharqiy Sibir
38. Qaysi Qo'qon xoni davrida xonlikning siyosiy mavqeyi yanada kuchayib, Ohangaron vohasi, Toshkent, Chimkent va Sayram, Rossiyaga boruvchi savdo karvon yo'llari bo'ysundirildi?
A) Erdonabiy B) Yunusxo'ja C) Norbo'tabiy D) Olimbek

39. Faysal o'zini Suriya qiroli deb e'lon qilgan vaqtda jahon sahnasida bo'lib o'tgan voqeani aniqlang.
 A) *Buyuk Britaniya bosh vaziri Lloyd-Jorj iste'foga chiqdi.*
 B) *Fransiyada Milyeran boshchiligida "Milliy blok" hukumati tuzildi.*
 C) *Germaniyada monarxist B.Kapp va general Lyudendorf boshchiligida davlat to'ntarishi o'tkazish uchun isyon ko'tardilar.*
 D) *Sovet davlati yangi iqtisodiy siyosat joriy etdi.*
40. 1970-yilning oxiriga kelib Indoneziyaga Amerika, Yaponiya va boshqa davlatlar kompaniyalari 1,3 mlrd dollar miqdorda investitsiya kiritdilar. Kapital asosan qaysi sohalarga kiritildi?
 A) *moliya va qishloq xo'jaligi*
 B) *kon sanoati, daraxt kesish va baliq ovlash*
 C) *avtomobil, trikotaj, qishloq xo'jaligi*
 D) *kon sanoati, trikotaj va kemasozlik*
41. Fransiyada Leon Blyum hukumati qabul qilgan qarorlar to'g'ri korsatilgan javobni toping.
 1) ish haqini oshirish; 2) soliqlarni kamaytirish; 3) 40 soatlik ish haftasini joriy qilish;
 4) korxonalarda jamoa shartnomalari tuzish; 5) jarimalarini bekor qilish; 6) kasaba uyushmalari huquqlarini himoya qilish; 7) ishchilarga nafaqa belgilash;
 8) haq to'lanadigan ta'til berish
 A) 1, 3, 4, 6, 8 B) 1, 2, 4, 5, 7
 C) 1, 2, 3, 7, 8 D) 1, 4, 6, 7, 8
42. XVI asrda barcha xristian ruhoniylarining Yaponiyani tark etishi haqida qonun chiqargan syogunni toping.
 A) *Yosimune* B) *Tokugava Iayasu*
 C) *Oda Nobunaga* D) *Toyotomi Xidayosi*
43. "Hidoya" asari muallifini aniqlang.
 A) *Hakim at-Termizi*
 B) *Burhonuddin al-Marg'ioniy*
 C) *Abu Mansur al-Moturidiy*
 D) *Mahmud az-Zamaxshariy*
44. Quyidagi atamalardan qaysi biri xalqaro shartnoma, bitim ma'nosini bildiradi?
 A) *traktat* B) *ssuda*
 C) *demobilizatsiya* D) *urbanizatsiya*
45. O'rta asr davlatlari haqidagi noto'g'ri ma'lumotni aniqlang.
 A) *So'g'd ittifoqi tarkibidagi Samarqand, Buxoro, Kesh vohalarining o'n bitta yirik mulklarining har biri o'z hokimi, harbiy chokarlari va mis puli birligiga ega edi.*
 B) *Toxariston eftallar hamda Turk xoqonligi davrida o'z mustaqilligini saqlab qolgan edi.*
 C) *So'g'd tog'laridan oltin, jez, novshadil va tuz kovlab olinar edi.*
 D) *So'g'dning histori qo'ylari va tulporlari juda mashhur edi.*
46. Tarixdan ma'lumki, Rossiya 1877-yilda Turkiyaga qarshi urush e'lon qildi va katta talofot yetkazdi. Rossiyaning muvaffaqiyatlari Buyuk Britaniyani tashvishga solib qo'ydi va . . .
 1) o'z harbiy kemalarini Marmar dengiziga kiritdi;
 2) o'z harbiy kemalarini O'rta yer dengiziga kiritdi;
 3) rus armiyasi Konstantinopolga bostirib kirsada, Rossiya bilan diplomatik aloqalarini uzishini ma'lum qildi;
 4) o'z harbiy kemalarini Bosfor va Dardanell bo'g'ozlariga joylashtirib, Istambul shahri himoyasida Turkiyaga harbiy madad taklif etdi;

- 5) Andrianopol shahriga ingliz harbiy kuchlarini joylashtirib, Turkiyani muqarrar halokatdan saqlab qolish choralari ko'rdi.
 A) 1, 3 B) 3, 4 C) 1, 5 D) 2, 3
47. Transval, Oranj, Natal, Kapni "Janubiy Afrika Ittifoqi" nomi ostida birlashgan yilda sodir bo'lgan voqeani toping.
 A) *Buyuk Britaniya-Rossiya bitimi imzolandi.*
 B) *Rus-Yapon urushi boshlandi.*
 C) *Avstriya-Vengriyada og'ir iqtisodiy inqiroz yuz berdi.*
 D) *Meksikada prezidentlik saylovi o'tkazildi.*
48. Qo'qon xonligida Yangiariq kanali nechanchi yillarda qazilgan?
 A) *1837-1839-yillar* B) *1819-1822-yillar*
 C) *1819-1823-yillar* D) *1842-1845-yillar*
49. Toshkentda "Qo'shchi" uyushmalarining birinchi respublika qurultoyi bo'lib o'tgan vaqtda jahon sahnasida bo'lgan voqeani aniqlang.
 A) *Tinch okeanidagi qaram orollar va mulklar xavfsizligining kafolatlari to'g'risidagi "To'rtlar shartnomasi" imzolandi.*
 B) *Antanta davlatlari va mag'lub Turkiya o'rtasida Sevur shartnomasi imzolandi.*
 C) *Xalqaro munosabatlar tarixida qurollanishni chekllovchi "Beshlar shartnomasi" imzolandi.*
 D) *Antanta davlatlari va mag'lub Avstriya o'rtasida Parij yaqinidagi Sen-Jermen saroyida shartnoma imzolandi.*
50. Qadimgi davrdan to Turkistonning XX asr boshlarigacha bo'lgan voqealari yilnomasi bayon etilgan asarni belgilang.
 A) *"Zubdat ut-tavorix"* B) *"Tarixi Turkiston"*
 C) *"Tarixi jadidayi Toshkand"* D) *"Tarixi Farg'ona"*
51. Qoraqalpog'iston poytaxtini respublikamizning temiryo'l tarmog'i bilan bog'lagan Taxiato'sh-Nukus yo'nalishi qachon ishga tushirilgan?
 A) *1962-yilda* B) *1969-yilda*
 C) *1975-yilda* D) *1957-yilda*
52. Quyidagi harbiy bloklar tashkil etilgan yillari bo'yicha to'g'ri xronologik tartibda joylashtirilgan javobni aniqlang.
 1) SENTO; 2) ANZYUS; 3) SEATO.
 A) 2, 1, 3 B) 1, 2, 3 C) 2, 3, 1 D) 3, 1, 2
53. Buyuk Britaniyada "bekor o'tgan 13 yil" davomida hukumatni qaysi siyosiy partiya boshqargan?
 A) *leyboristlar* B) *konsevtorlar*
 C) *respublikachilar* D) *liberallar*
54. Quyidagi voqealar orasidan bir yilda sodir bo'lganlarini aniqlang.
 1) Rossiya va Shvetsiya o'rtasida hozirgi Ukraina hududida urush bo'lib, unda Rossiya g'alaba qozondi; 2) Qandahor viloyatida Eron bosqinchilariga qarshi qo'zg'olon bo'ldi va unga Mir Vaisxon rahbarlik qildi; 3) Rossiya va Fransiya o'rtasida "Tilzit shartnomasi" nomini olgan shartnoma imzolandi; 4) Rim Papasi Koreya yepiskopligi tuzilganligini e'lon qildi.
 A) 3, 4 B) 2, 4 C) 1, 3 D) 1, 2
55. Xiva xonligida kimlar koranda deb atalgan?
 A) *davlat yerlarini ijaraga oluvchilar*
 B) *Xurosondan qaytib kelgan turkman qabilalari*
 C) *xususiy yerlarni ijaraga oluvchilar*
 D) *ko'chmanchi qozoq chorvadorlari*

56. Qo'qon xonligi elchilari Xivaga kelgan yilda sodir bo'lgan voqeani aniqlang.
 A) *Qo'qon xonligida qo'zg'olon ko'tarildi.*
 B) *"Ost-Indiya" kompaniyasi Hindistonning Sind viloyatini bo'sundirdi*
 C) *Buxoro amirligi taxtiga Amir Muzaffar o'tirdi.*
 D) *Rossiyada krepostnoylik tuzumi bekor qilindi.*
57. M.V.Lomonosov haqida "Tarixchi, notiq, kimyogar, minerolog, rassom va shoir. U hamma narsani sinab ko'rgan, hamma narsani o'rgangan" degan fikrni kim bildirgan edi?
 A) *E.Jenner* B) *V.Putin*
 C) *A.S.Pushkin* D) *D.I.Mendeleyev*
58. Hindistonning shimoliy hududlariga turk va afg'on qabilalarining hujumlari va joylashuvi qaysi asrlarda g'oyat kuchaygan?
 A) *XI-XII* B) *XI-XIII* C) *IX-X* D) *X-XI*
59. Berdaq o'zining qaysi she'rlari orqali yoshlarni Vatanni sevishtga, ma'rifat cho'qqilarini egallashga chaqiradi?
 1) "Hoy yigitlar, yigitlar"; 2) "El bilan"; 3) "O'g'limga";
 4) "Umrim"; 5) "Ahmoq bo'lma"; 6) "Xalq uchun"; 7) "Bor, bolam bor"
 A) 3, 5 B) 1, 6 C) 2, 7 D) 4, 6
60. Avstriya-Vengriya hukumati tomonidan Chexiyada qamal holati joriy etilgan va Praga universitetida o'qitish 2 tilda olib boriladigan bo'lgan yillarni ko'rsating.
 A) *1869, 1880-yillar* B) *1868, 1880-yillar*
 C) *1867, 1880-yillar* D) *1868, 1882-yillar*
61. XIX asr oxirlarida Shimoliy Afrikadagi fransuz mustamlakalari to'g'ri berilgan javobni toping.
 A) *Liviya, Sudan* B) *Tunis, Jazoir*
 C) *Tunis, Sudan* D) *Misr, Marokash*
62. O'rta asrlarda Angliyada qaram dehqonlar qachon va qanday tartibda ozodlikka chiqarilgan?
 A) *mamlakatda qo'shimcha jon solig'i joriy etilishi bilan*
 B) *XVI asrda qirol farmoniga ko'ra*
 C) *XV asrda qo'zg'olondan so'ng*
 D) *XV asrda to'lov evaziga*
63. Qadimgi davrda O'zbekiston hududida davlatchilik taraqqiyoti nimaga asoslangan?
 A) *savdo-sotiq sohasidagi yutuqlarga va harbiy ittifoq mezonlariga*
 B) *humarmandchilik taraqqiyotiga va urug'chilik udumlariga*
 C) *Qadimgi Sharqdagi shaharlar va manzilgohlar rivojiga*
 D) *mahalliy aholining yuqori darajada rivojlangan ziroatchiligiga*
64. Buxoroda "Tarbiyai atfol" jamiyati tashkil etilgan vaqtda jahon tarixida sodir bo'lgan voqealarni aniqlang.
 1) Meksikada Prezidentlik saylovi o'tkazildi.
 2) Rossiyada saylov to'g'risida yangi qonun qabul qilindi.
 3) Yaponiya Koreya yarimorolini harbiy kuch bilan o'ziga qo'shib oldi.
 4) "Hindiston kengashlari haqida qonun" nomli hujjat qabul qilindi.
 5) Eron taxtiga Muhammad Alishoh o'tirdi.
 6) Janubiy Afrika Ittifoqi tashkil topdi.
 A) 1, 3, 6 B) 3, 4, 6
 C) 2, 4, 5 D) 1, 3, 5
65. 1919-yil Fransiya saylovlarida g'alaba qozongan "Milliy blok" saylovchilarga bergan va'dalarini bajarmaganligiga nima sabab b'ldi?
 A) *Germaniya xavfining kuchayib ketishi*
 B) *jahon iqtisodiy inqirozining boshlanishi*
 C) *Milliy blokda boshlangan bo'linish*
 D) *mustamlakalarda boshlangan milliy ozodlik harakatlari*
66. Neolit davridan beri ma'lum bo'lgan va biron-bir tilning yozuv vositasi hisoblanmaydigan, ma'lumotlar rasm yoki rasmlar ketma-ketligi orqali tasvirlanadigan yozuvni aniqlang.
 A) *epigrafika* B) *katiba*
 C) *piktografika* D) *mixxat*
67. Arablar tomonidan Xuroson deb atalgan hudud yerlari ko'rsatilgan javobni aniqlang.
 A) *Hozirgi Afg'onistonning sharqiy, Eronning sharqiy qismi, shimoliy Pokiston hamda markaziy Turkmanistondan to Amudaryogacha bo'lgan hududlar*
 B) *Hozirgi Afg'oniston, Eronning sharqiy qismi, qisman Pokiston, Kaspiy dengizining sharqi hamda Janubiy Turkmanistondan to Amudaryogacha bo'lgan hududlar*
 C) *Hozirgi Afg'oniston, Eronning shimoli-sharqiy qismi, Pokistonning shimoliy qismi hamda Sind yerlaridan to Amudaryogacha bo'lgan hududlar*
 D) *Hozirgi Afg'onistonning shimoli, Eronning shimoli-sharqiy qismi hamda janubiy Turkmanistondan to Amudaryogacha bo'lgan hududlar*
68. Ivan IV oprichnina siyosatini bekor qilishga majbur bo'lgan yilda sodir bo'lgan voqeani belgilang.
 A) *"Varfolomey tuni" voqeasi yuz berdi*
 B) *Humoyun Eron yordamida taxtni egalladi*
 C) *Utrect uniyasi imzolandi*
 D) *Genrix IV taxtga o'tirdi*
69. Antikomintern paktini imzolagan davlatlarni eslang. Ulardan birining tarixida 1162-yilda sodir bo'lgan voqea to'g'ri berilgan javobni toping.
 A) *Kioto shahri yong'in tufayli kulga aylandi.*
 B) *Rudolf Gabsburg taxtga o'tqazildi.*
 C) *Ronkal vodiysida seym chaqirildi.*
 D) *Milan boshchiligida Lombardiya shaharlari bosqinchilarga qarshi qo'zg'olon ko'tardi.*
70. Buxoro xonligida Ubaydullaxon hukmronlik qilgan yillarda Angliya qiroli bo'lgan shaxsni aniqlang.
 A) *Genrix VIII Tyudor*
 B) *Richard II*
 C) *Yelizaveta*
 D) *Mariya*
71. Buxoroda amirlik taxti Shohmurod qo'liga o'tgan yili tarixda sodir bo'lgan voqeani aniqlang.
 A) *Koreyada "Qonunlarning buyuk to'plami" nomli hujjat tuzildi.*
 B) *Afg'oniston shohi Ahmadshoh "Durri-Duron" unvonini oldi.*
 C) *Eronda Qojarlar hukmronligi boshlandi.*
 D) *Qrim xonligi Rossiya tarkibiga qo'shib olindi.*
72. Ma'lumki, Koreya 1910-yilda Yaponiya mustamlakasiga aylangan edi. Bu hol nechanchi yilgacha davom etgan?
 A) *1943-yilgacha*
 B) *1945-yilgacha*
 C) *1949-yilgacha*
 D) *1953-yilgacha*

73. Choose the correct tense.
"Do you want white bread or wheat?"
"I don't care. ... one is fine."
A) *Neither* B) *Either*
C) *Both* D) *None*
74. Choose the best answer.
Amir had ... work that he was busy all day long.
A) *so little* B) *so many* C) *too many* D) *so much*
75. Choose the correct answer.
George is a very careless driver. His parents ... about his safety.
A) *ashamed* B) *confused* C) *worried* D) *concerned*
76. Choose the correct answer.
The physician's office has a laboratory ... a variety of medical tests can be done.
A) *where* B) *which* C) *that* D) *in that*
77. Choose the best answer.
The Philippines ... of more than 7,000 islands.
A) *consisting* B) *consist* C) *consists* D) *is consisting*
78. Choose the best answer.
Just ask them if you can play and I am sure, they will let you....
A) *take up* B) *join in* C) *go off* D) *take in*
79. Choose the correct answer.
We're going on a holiday ... by a travel company. It includes accommodation, flights, and so on.
A) *arranging* B) *is arranged*
B) C) *arranged* D) *having arranged*
80. Choose the best answer.
You didn't study well enough and now you aren't studying again. You ... university earlier.
A) *could enter* B) *should have entered*
C) *would enter* D) *could have entered*
81. Choose the best answer.
He tried to translate the text as ... to the original as possible.
A) *closest* B) *close*
C) *closely* D) *closer*
82. Choose the answer which correctly completes the sentence.
- I am sure, I've failed my test.
- Well, there is no point ... until you get your results.
A) *to worry* B) *in worrying*
C) *to worrying* D) *to be worrying*
83. Choose the correct answer.
He ... scarcely ... the house, when it started to rain.
A) *would/ enter* B) *was/ entering*
C) *has been/ entering* D) *had/ entered*
84. Choose the correct answer.
My students' sleepless nights became ... as the finals approached.
A) *as frequently* B) *a lot frequent*
C) *as frequent* D) *more frequently*
85. Choose the best answer.
This time next week, we ... the chemistry exam.
A) *have finished* B) *have been finishing*
C) *will have finished* D) *will have been finishing*

86. Choose the correct answer.
We asked the secretary, "How long do we have to wait?"
We asked the secretary how long ... to wait.
A) *we had* B) *did we have*
C) *we have* D) *do we have*
87. Choose the correct answer.
We are out of ... coffee. Can you get some from the supermarket?
A) *The* B) *a* C) *-* D) *an*
88. Choose the correct answer.
... astronomers have so far found no earth-like planets, this does not mean that there are none.
A) *While* B) *As* C) *As if* D) *Even though*
89. Choose the answer which correctly completes the sentence.
The writer thanked his wife for the support she ... him while ... the book.
A) *had given/ was writing*
B) *gave/ is writing*
C) *was giving/ had writing*
D) *has given/ will be writing*
90. Choose the best answer.
-I don't believe that the chemical factories can be perfectly safe.
-
A) *So am I* B) *Neither am I*
C) *I don't either* D) *Neither did I*
91. Choose the correct answer.
In the end he admitted that he... the fire ... at such a speed.
A) *didn't expect/ to have spread*
B) *hadn't expected/ to spread*
C) *wouldn't expect / to be spreading*
D) *hadn't been expecting / to have spread*
92. Choose the correct answer.
I've been in this class ... the beginning of the semester.
A) *for* B) *since*
B) C) *until* D) *at*
93. Choose the best answer.
Mark talked to the woman sitting next to
A) *himself* B) *herself*
B) C) *him* D) *he*
94. Choose the answer which correctly completes the sentence.
I had my appendix ... when I was six.
A) *removed* B) *remove*
C) *been removing* D) *to be removed*

Read the text. Then choose the correct answer for each question below (95-98).

Banks are places where people can keep their money. Most people use banks to save money in their savings accounts and to pay money from their checking accounts. Today, when a person earns money from their job, their paycheck is often electronically deposited (put) into their savings or checking account. Then, he or she can pay their bills by writing checks from their checking accounts or pay online where their bills are electronically connected to their bank accounts.

Banks also give loans to people. People may use the bank's money to buy new houses, cars, or to start businesses among other reasons. The bank makes money from

lending by charging interest. In other words, people have to pay back more than they borrowed. This amount depends on how risky the bank thinks the borrower is and how fast the loan is paid back among other things.

95. How much "interest" do borrowers have to pay?
A) *Most borrowers don't have to pay interest.*
B) *Everyone pays the same amount of interest.*
C) *The story doesn't tell.*
D) *It depends on a lot of things.*
96. How do banks make money?
A) *By saving customer deposits.*
B) *Charging interest to those they lend to.*
C) *By having a lot of accounts.*
D) *Electronically.*
97. How does "interest" work?
A) *Banks pay people more money than they borrowed.*
B) *Banks require people to pay back money they borrowed very quickly.*
C) *Banks require people to pay back the same amount of money they borrowed.*
D) *Banks require people to pay back more money than they borrowed.*
98. What do banks NOT do?
A) *Help people get jobs.*
B) *Provide a place where people can pay their bills from.*
C) *Provide a place where people can save their money.*
D) *Lend money to people.*

Read the text. Then choose the correct answer for each question below (99-102).

Under the great Moghul emperors, artists emerged from their previous anonymity. They were allowed, for the first time, to sign their work, and even encouraged to include self-portraits in their paintings. And the artists' skills did not go unrewarded: one emperor even presented a favourite painter with an elephant, the ultimate status symbol of the age. Yet little is known about the artists' lives. The more successful may have enjoyed an economic status similar to lower-level nobles. However, their simple dress in the self-portraits suggests that the rewards for many painters did not always match their unquestionable talent.

99. In the passage, the word "anonymity" in the first sentence refers to a condition in which....
A) *the people had to live in extreme poverty*
B) *the artists were well-respected*
C) *the emperors employed only very talented artists*
D) *the artists of paintings were not known by name*
100. At the time of the Mogul emperors, ...
A) *artists could only earn very little money*
B) *not all the artists earned well*
C) *artists had the same status as the nobles*
D) *most of the artists were not rewarded for their paintings*
101. We can infer from the passage that one way artists were able to become better known was by
A) *including pictures of themselves in their work*
B) *riding status symbols through town*
C) *selling paintings to Moghul emperors*
D) *having an economic status similar to lower-level nobles*

102. All of the following statements contradict the text EXCEPT:

- A) *The works of painters were not recognized during Moghul emperors.*
B) *Painters were punished for their paintings.*
C) *The painters' works were not left unnoticed and unrewarded by emperors.*
D) *Painting was not so popular during Mogul Empire.*

Read the text. Then choose the correct answer for each question below (103-105).

Much of the blood on the street flows essentially from uncivil behavior of drivers who refuse to respect the legal and moral rights of others. So the massacre on the road may be regarded as a social problem. Safety standards for vehicle have been raised both at the point of manufacture and through periodic road-worthiness inspections. In addition, speed limits have been lowered. Due to these measures, the accident rate has decreased. But the accident experts still worry because there has been little or no improvement in the way drivers behave.

103. According to the passage, traffic accidents may be regarded as a social problem since....
A) *the motor vehicle is a very dangerous invention*
B) *the accidents have more to do with hazardous conditions than hazardous drivers*
C) *most of the accidents are caused by drivers who don't pay attention to the traffic rules*
D) *the irresponsibility that accounts for much of the problem is not confined to drivers*
104. According to the passage, the number of accidents has fallen because
A) *significant advances have been made towards safer driving*
B) *many people now know that driving is a skilled task requiring constant care and concentration*
C) *drivers are warned to take extra care on the roads*
D) *drivers have finally learned how to behave*
105. It is pointed out in the passage that those who violate traffic regulations
A) *are the most inexperienced drivers that we have on the roads*
B) *always blame the road conditions*
C) *don't have prior traffic violations or crashes on their records*
D) *are the biggest threat to those with whom they share the road*

Read the text. Then choose the correct answer for each question below (106-108).

Parents teach their children to be fearful and cautious of specific dangers, such as fire or crossing the road. Anxiety can be useful, because it helps protect the child from harm. However, children can be fearful of situations or objects that adults don't consider threatening. The sources of fear may change as the child matures; for example, a fear of the dark or monsters under the bed may give way to fears of burglary or violence. Tactics that don't work include teasing the child for being afraid, or compelling them to confront fearful situations. Helping the child to deal with fear includes taking their feelings seriously, encouraging them to talk about their anxieties, telling them the facts, and giving them the opportunity to confront their fears at their own pace and with your support.

106. It is stated in the article that

- A) *parents should not teach their children to be cautious of specific dangers*
- B) *the best way to avoid fears during childhood is to ignore them*
- D) *making fun of the child's fears is the best way to get rid of them*
- C) *the fears of the childhood can lead to some other fears in the adulthood*

107. It is clear from the passage that forcing the child to face his fears directly

- A) *works when the child isn't eager to talk about his fears*
- B) *helps the child to learn the facts and realities*
- C) *may protect him from some certain dangers*
- D) *is not a good way to follow*

108. It can be understood from the article that adults

- A) *prefer to cope with difficult situations at their own pace*
- B) *should talk to the child about his fears in an open and honest way*
- C) *may have same fears but may not be aware of them*
- D) *do not want to talk about their own fears unlike children*

- Quyida berilgan fikrlarning nechtasi noto'g'ri?
 - gapda kesim gapning oxirida, ega esa ko'pincha gap boshida keladi;
 - ilmiy uslub uchun gap bo'laklarining o'zgargan tartibi mos;
 - gapdan ko'zda tutilgan umumiy fikrga qo'shimcha ma'no, uslubiy yuk berish uchun gap bo'laklari tartibi o'zgarishi mumkin;
 - gapda kesimning o'rni o'zgaymaydi.

A) 4 tasi B) 1 tasi C) 2 tasi D) 3 tasi
- Bolalikda quyosh sekin chiqayotgandek bo'laveradi. Keksalikda quyosh tez botayotgandek bo'laveradi. Ushbu gaplardagi mavhum otlar sonini aniqlang.

A) 2 ta B) 4 ta C) 3 ta D) 5 ta
- O'z umri davomida yurtlar kezib, Haqni va haqiqatni tanish, pok e'tiqod, haqiqiy muhabbat targ'iboti bilan mashg'ul bo'lgan shoir kim?

A) *Furqat* B) *Najmiddin Kubro*
C) *Mashrab* D) *X.Huvaydo*
- 1) "Hasht behisht"; 2) "Salomon va Absol"; 3) "Haft paykar"; 4) "Saddi Iskandariy".
Ushbu asarlarni mualliflari bilan to'g'ri juftlab ko'rsating.
a) Navoiy; b) Ganjaviy; d) Dehlaviy; e) Jomiy.
A) 1-a, 2-e, 3-d, 4-b B) 1-b, 2-d, 3-e, 4-a
C) 1-e, 2-b, 3-a, 4-d D) 1-d, 2-e, 3-b, 4-a
- "She'rd a qofiyaga tushmaydigan biror misra yo'q. Biroq ular g'azaldagi kabi qat'iy tartibga bo'ysunmaydi. Shu tariqa kuchli musiqiylik ta'minlangan".
Bu parchadagi ta'rif Sergey Yeseninning qaysi she'ri haqida?
A) "Dog'lar ketmish majruh ko'ngildan"
B) "Bu dunyoda men bir yo'lovchi"
C) "Xurosonda bir darboza bor"
D) "Singlimga xat"
- Bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gaplarni aniqlang.
 - Agar yerlar traktor bilan haydalsa, menhat unumli bo'ladi va hosil mo'l bo'ladi.
 - Bilim shundayki, u yalang'och bo'lganingda ham o'zing bilan qoladi, uni suv bilan ham yo'qota olmaysan.
 - Reja bajarilsa, dasturxon mo'l bo'lsa, yor-u do'st, birodarlar qalin bo'lsa, tantanalar qishgacha davom etaveradi.
 - Shuni ta'kidlash lozimki, miyada jismoniy harakat yuzaga keladi, mushakchalar bilan boyitib boradi.
 - Kishilarning huquqiy ongi yuksalsa, har kim o'z haq-huquqini bilsa va himoya qila olsa, jamiyatda demokratiya rivojlanadi.

A) 1, 5 B) 1, 2, 3, 4, 5
C) 2, 3, 4, 5 D) 1, 2, 3, 5
- Olimlarimiz adiblarimiz eng nufuzli xalqaro mukofotlar sohibi bo'lsalar sportchilarimiz shoda-shoda medallar olsalar Osiyo o'yinlari olimpiada o'yinlari bizning vatanimizda o'tsa - bu mening orzum.
Ushbu gapda necha o'rinda tinish belgisi tushirib qoldirilgan?
A) 7 ta B) 4 ta C) 5 ta D) 6 ta

- Aybdor o'zi har savolga bergan javobi bilan jinoyatini iqror qildi.
Ushbu gapdagi yasama so'zlar sonini aniqlang.
A) 2 ta B) 5 ta C) 3 ta D) 4 ta
- "Zamona kimniki?", "Dar mazammati zamona" kabi satirik she'rlar muallifi kim?
A) *Turdi Farog'iy* B) *Zavqiy* C) *So'fizoda* D) *Muqimiy*
- Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarini chinliklar qanday nom bilan atashgan?
A) "Ziynat ul-umaro" B) "Shohnomayi turkiy"
C) "Adab ul-muluk" D) "Amin ul-mamlakat"
- Asr so'zining paronimi bilan sinonim bo'la oladigan so'zni aniqlang.
A) *vaqt* B) *tinchlik* C) *tutqun* D) *baland*
- Odil Yoqubovning mustaqillik yillarida yozgan pyesasining nomi qaysi javobda berilgan?
A) "Adolat manzili" B) "Ko'hna dunyo"
C) "Diyonat" D) "Muzaffar Temur"
- Ravish asosli sodda yasama fe'l ishtirok etgan gaplarni aniqlang.
 - Bugun sen ataylab ishga kechik.
 - Shunday xastalar bo'ladiki, ularni faqat so'z bilan davolamoq zarur.
 - Birov suv topolmaydi ichgani, birov kechik topolmaydi kechgani.
 - Yaxshilik urug'i ko'payaversin.

A) 2, 3 B) 1, 3, 4 C) 1, 4 D) 3, 4
- Sal, xiyol, har kuni, har bir, ozgina, o'zicha, har on, shu payt, zo'rg'a.
Ushbu ravishlardan nechtasi tuzilishiga ko'ra qo'shma ravish hisoblanadi?
A) 7 ta B) 3 ta C) 4 ta D) 6 ta
- Quyidagi gapda yasama so'zlar soni nechta?
O'tmishda yashab o'tgan buyuk bobolarning hayoti va faoliyatini bilish shu kunning asosiy talabi sanaladi.
A) 3 ta B) 5 ta C) 2 ta D) 4 ta
- Kishi yaxshi narsaga intiladi, yomon narsadan qochadi.
Ushbu gapdagi ko'makchi morfemalar haqidagi noto'g'ri fikrlarni aniqlang.
 - So'z yasovchi qo'shimchalar ismlar guruhiga kiruvchi so'z turkumlariga qo'shilib yangi so'z yasagan.
 - Shakldoshlik xususiyatiga ega 1 ta so'z yasovchi morfema mavjud.
 - Tarkibida 2 ta shakl yasovchi qo'shimcha mavjud so'z qatnashgan.
 - Sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar ismlar guruhiga mansub so'zlarga qo'shilmagan.

A) 1, 3 B) 1, 2, 3, 4
C) 2, 4 D) 1, 2
- Qo'shma fe'l qatnashgan gapni toping.
 - Besh kunlik dunyoning g'animatligini o'ylang.*
 - Unsin ostonadan hatlashi bilan qarshisiga yugurib chiqqan Zumrad bilan quchoqlashib ko'risha ketishdi.*
 - Mo'ysafid gullarni shiyponga qo'yib, mehmonlar bilan ko'risha ketdi.*
 - Mana men. Borlig'im bilan senga ko'mak qilurga hozirman.*

18. Beodob qizning gapini onasi tekislab turdi.
Ushbu gapda ma'no ko'chishining qaysi turi mavjud?
A) *metafora* B) *metonimiya* C) *vazifadoshlik* D) *sinekdoxa*
19. Eng muhimi, mustaqillik tufayli odamlarimizning dunyoqarashi va tafakkuri, ma'naviy qiyofasi o'zgardi, jamiyatimizda ahillik, muruvvat, mehr-oqibat, tinchlik va osoyishtalik qaror topdi.
Ushbu gapdagi so'z yasovchilar sonini toping.
A) 4 ta B) 6 ta C) 5 ta D) 7 ta
20. Muhammad Yusuf she'rlaridan birida nimani "dunyoni tor aylagan o'sha", deya ta'riflaydi?
A) *mehr-muhabbatni*
B) *nafratni*
C) *vafoni*
D) *yolg'onchilikni*
21. Bu xayollar va bu savollar, yangi mingyillikda meni qiynab turgan hislar, yozilmagan she'rlarimdir.
Ushbu gapdagi so'z birikmalarining tobe qismi qaysi so'z turkum(lar)i bilan ifodalangan?
A) *olmosh, sifat* B) *olmosh, ravish*
C) *olmosh, sifat, ot, fe'l* D) *olmosh, ot*
22. Alla ayting, shunday aytingki, bolangiz ulg'ayib, dunyoni mehrga chulg'asin.
Bu gapdagi o'tli so'z birikmalarida tobe qism qaysi gap bo'laklari vazifasini bajargan?
A) *qaratqich aniqlovchi, sifatlovchi aniqlovchi, hol*
B) *bu gapda o'tli so'z birikmasi yo'q*
C) *ega, qaratqich aniqlovchi, sifatlovchi aniqlovchi*
D) *to'ldiruvchi, ega, qaratqich aniqlovchi, sifatlovchi aniqlovchi*
23. Otlashgan so'z to'ldiruvchi vazifasida qo'llanmagan gapni toping.
A) *Kattaga hurmatda bo'l, kichikka izzatda bo'l.*
B) *Yomon bilan yo'ldosh bo'lsang, yomondan burun o'lasan.*
C) *To'qayga o't tushsa, ho'l-u quruq baravar yonadi.*
D) *Yaxshi bilan yursang, yetarsan murodga, Yomon bilan yursang, qolarsan uyatga.*
24. Yig'layman, to'yib-to'yib yig'lab olaman goho.
Pahlavonda ham yurak bor, uning ham g'am-g'ussasi bor, ukam...
Ushbu matndagi so'zlar imlosida necha o'rinda fonetik o'zgarish sodir bo'lgan?
A) 3 B) 5 C) 2 D) 6
25. Iymon niri oqib turar bir gavhar bor qonimizda, Ne-ne buyuk bobolarning bardoshi bor jonimizda...
She'riy parchadagi kelishik qo'shimchalari haqidagi to'g'ri hukmni belgilang.
A) 2 o'rinda belgisiz, 3 o'rinda belgili kelishik qo'shimchasi qo'llangan
B) 3 o'rinda belgisiz, 2 o'rinda belgili kelishik qo'shimchasi qo'llangan
C) 4 o'rinda belgisiz, 2 o'rinda belgili kelishik qo'shimchasi qo'llangan
D) 1 o'rinda belgisiz, 1 o'rinda belgili kelishik qo'shimchasi qo'llangan
26. Jarangsiz jufti mavjud bo'lgan til oldi undoshlarini aniqlang.
A) *l, m, r, n* B) *d, z, j* C) *x, y, h* D) *r, l, n*
27. Teng bog'lovchining ikki xil mazmuniy munosabatiga mansub turi quyidagi qaysi gapda ishtirok etgan?
A) *Mamlakatimizda bayramlar ko'p, lekin Navro'zning tarovati va shukhi o'zgacha.*
B) *Ma'nisiz hayot kechirish yomon turmush kechirish degani emas, ammo sekin-asta o'lish demakdir.*
C) *Yo'qchilik g'ayratli, ishchan odamning eshigidan mo'ralaydi-yu, ichkariga kira olmaydi.*
D) *Dunyoda kasblar ko'p, biroq odamiylik kasbi hammasidan ulug'dir.*
28. Qaysi so'zdagi bir quyi keng unli o'rnida boshqasi qo'llanganda so'z ma'nosi farqlanadi?
A) *taqa* B) *siqim* C) *soliq* D) *xam*
29. **Demonkim, ko'ngli pok-u, ham ko'zi pok, Tili pok-u, so'zi pok-u, o'zi pok.**
Berilgan baytda qanday she'riy san'at qo'llangan?
A) *takrir* B) *tajnis* C) *tashbeh* D) *talmeh*
30. Istiqlol bergan eng buyuk ne'mat o'zlikni anglash, milliy g'urur va oriyatni tiklash bo'ldi.
Ushbu gapda yasama fe'llar nechta gap bo'lagiga nisbatan hokim bo'lak vazifasini bajargan?
A) 2 ta B) 5 ta C) 3 ta D) 4 ta
31. Quyidagi gapda uyushiq bo'laklar qanday so'z turkumlari bilan ifodalangan?
Mevani gullata bilishgina emas, balki undan mo'l va shirin hosil yetkaza bilish san'atdir.
A) *fe'l, ot* B) *ravish, olmosh* C) *fe'l, sifat, ravish* D) *son, ot*
32. Mamlakatning istiqboli ham, kelajagi ham yoshlar, sog'lom insonlar qo'lida bo'lishi tabiiy holdir.
Ushbu gapda moslashuv usulida bog'langan nechta so'z birikmasi bor?
A) 3 ta B) 2 ta C) 4 ta D) 5 ta
33. Fonetik o'zgarish faqat lug'aviy shakl yasovchi ta'sirida sodir bo'lgan so'z ishtirok etgan gaplarni aniqlang.
1. *Ikkalasi ham shahrimizdagi o'zgarishlarni ko'rib lol bo'lishdi.*
2. *To'pidan ayrilganni bo'ri yer.*
3. *O'z ko'nglingni ko'tarishning eng yaxshi yo'li kimningdir ko'nglini ko'tarishdir.*
4. *Inson dunyoni qanchalik bilsa, o'zini ham anglaydi.*
A) 2, 4 B) 1, 4 C) 1, 2, 3 D) 4
34. Quyidagi qaysi baytda muqayyad qofiya bor?
A) *Ul qodirki arz-u aflok yarlatdi, Ko'ngulda dog', dilni g'amnok yaratdi.*
B) *Borma aytmaganning dasturxoniga, Qo'l uzotsang, qadring ketar, noniga.*
C) *Ayo do'stlar, hech bilmadim men yo'limni, Saodatqa bog'lamadim men belimni.*
D) *Haq vaslini izlab topmay, hayronaman, Tinmay yig'lab, ko'ngli buzuq vayronaman.*
35. "Advokatlik osonmi" (A.Avloniy) asari qahramonlari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni aniqlang.
A) *Haydarali, Xudoyberdi, Rapoil, Mehriniso*
B) *Tangriqul, Davlat, Mehriniso, Egamberdi*
C) *Tangriqul, Toshmurod, Davronbek, boy*
D) *Haydarali, Mehriniso, Xushvaqt, Toshmurod*
36. Qaysi doston kitobxonlarni mustahkam islomiy e'tiqod, chin va pokiza muhabbat, or-nomus, qahramonlik, ota yurt va xalqqa sadoqat ruhida tarbiyalaydi?
A) *"Rustamxon"* B) *"Kuntug'mish"*
C) *"Alpomish"* D) *"Ravshan"*

37. Rim qachon Alarix boshchiligidagi gotlar tomonidan talon-taroj qilingan?
A) 476-yilda B) 455-yilda C) 422-yilda D) 410-yilda
38. XIX asrning 90-yillari o'rtalaridan boshlangan iqtisodiy yuksalish tufayli Fransiyada qaysi davrga kelib mo'tadil barqarorlik ta'minlandi?
A) XX asrning oxiriga B) XX asrning boshlariga
C) XX asrning o'rtalariga D) XX asrning 60-70-yillariga
39. Ikkinchi jahon urushi yillaridan keyin O'zbekistonda barpo etilgan kimyo sanoati korxonalarini ular qurilgan yillari bilan muvofiqlashtiring.
1) Farg'ona azot o'g'iti zavodi; 2) Navoiy kimyo kombinati; 3) Olmaliq kimyo zavodi;
a) 1965-yil; b) 1969-yil; c) 1962-yil
A) 1-a, 2-b, 3-c B) 1-c, 2-b, 3-a
C) 1-b, 2-a, 3-c D) 1-c, 2-a, 3-b
40. O'zbekistonning qaysi viloyatida Xitoyning "Nunkel" firmasi bilan hamkorlikda yo'g'och tolali plita ishlab chiqarish yolg'a qo'yildi?
A) Namangan B) Jizzax
C) Samarqand D) Qashqadaryo
41. Xorazmda kim hukmron bo'lib turgan vaqtda Yevropada feodallarning III salib yurishlari yuz bergan?
A) Takash B) Elarston
C) Qutbiddin Muhammad D) Otsiz
42. Argentina tarixiga oid quyidagi voqealarni to'g'ri xronologik ketma-ketlikda joylashtiring.
1) "Immigratsiya va kolonizatsiya to'g'risida" qonun qabul qilindi; 2) Buenos-Ayresda milliy bank ochildi; 3) Argentina Sotsialistik partiyasi tuzildi
A) 1, 3, 2 B) 2, 3, 1 C) 3, 2, 1 D) 2, 1, 3
43. Rus podshosi Pyotr I tomonidan uyushtirilgan Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasi Xiva xonligi hududlariga kirib kelgan yilni aniqlang.
A) 1718-yil B) 1715-yil C) 1714-yil D) 1717-yil
44. Abulxayrxon o'z davlati poytaxtini Turadan qaysi shaharga ko'chirgan?
A) Sig'noqqa B) Marvga C) Suzoqqa D) Oqqo'rg'onga
45. Germaniya Demokratik Respublikasida nechanchi yilda mavjud tuzumga qarshi isyon ko'tarildi va Sovet qo'shinlari yordamida bostirildi?
A) 1953-yilda B) 1954-yilda C) 1955-yilda D) 1952-yilda
46. Quyidagi voqealardan qaysilari bir yilda sodir bo'lganligini aniqlang.
1) Pyotr I ning Rus davlati taxtiga o'tirishi; 2) Amur daryosi chap sohilining Rossiyadan ajratib olinishi; 3) Rossiya va Shvetsiya o'rtasida tarixga "Shimoliy urush" nomi bilan kirgan urushning boshlanishi; 4) M. Kutuzov bosh qo'mondonligi ostidagi rus qo'shinlarining dushman ustidan porloq g'alabasi.
A) 1, 3 B) 1, 2 C) 3, 4 D) 2, 4
47. Polsha davlatiga kim tomonidan qachon asos solingan?
A) Meshko, X asrning o'rtalarida
B) Bolislav, X asrning oxirlarida
C) Svyatoslav, XI asrning boshlarida
D) Vatslav, X asr boshlarida

48. Ruslar Irtish daryosi sohilida 7 ta istehkom qurib bitkazgan davrda Buxoro hukmdori kim bo'lgan?
A) Abulfayrxon B) Abulmo'min
C) Ubaydullaxon II D) Muhammad Rahimiy
49. Amerika qit'asini aylanib o'tib, Hindistonga boradigan dengiz yo'lini ochgan dengizchi nomini toping.
A) Vasko da Gama B) Frensis Dreyk
C) Fernand Magellan D) Xristofor Kolumb
50. Birinchi jahon urushi qaysi davlatni G'arbiy Yevropaning birinchi davlatiga aylantirdi?
A) Fransiya B) Buyuk Britaniya
C) Germaniya D) Italiya
51. 1583-1600-yillarda Buxoro elchilari necha marta Moskvada bo'lishgan?
A) 1 marta B) 2 marta C) 6 marta D) 5 marta
52. Ilk o'rta asrlarda Shimoliy Hindiston hududida 75 yil davomida hukmronlik qilgan davlatni aniqlang.
A) Xioniylar B) Kidariylar
C) Eftaliylar D) Sosoniylar
53. Quyidagi asarlardan qaysi biri Mir Olim Buxoriy tomonidan yozilgan?
A) "Buxoro, Qo'qon va Qoshg'arning ayrim voqeahodisalari bayoni"
B) "Shohnomayi nusratpayom"
C) "Fathnomayi sultoniy"
D) "Saralangan tarixlar"
54. Sirdaryodagi Farhod GESining loyahasini ishlab chiqishda mashhur irrigatorlardan kimlar faol ishtirok etdilar?
A) A. N. Askochenskiy, V. V. Poslavitskiy
B) A. N. Askochenskiy va A. N. Askochenskiy
C) D. M. Bogdanov va A. I. Avtonomov
D) S. S. Kanash va A. I. Avtonomov
55. Qachondan boshlab G'arbiy Rim imperiyasini qullar va kolonlar qo'zg'olonlari qamrab oldi?
A) mil. II-III asrda B) mil. III asrda
C) mil.av. II-I asrlarda D) mil. IV-V asrlarda
56. O'rta Osiyo xonliklariga Angliya hukumati tomonidan yuborilgan shaxslarining tashrif buyurgan yillari bilan mos ravishda ko'rsatilgan javobni toping.
1) Murkroft; 2) I.Volf; 3) J.Abbot; 4) A.Byorns;
a) 1843-yil; b) 1825-yil; c) 1844-yil; d) 1832-yil
A) 1 - d; 2 - a; 3 - c; 4 - b B) 1 - b; 2 - c; 3 - a; 4 - d
C) 1 - b; 2 - a; 3 - c; 4 - d D) 1 - c; 2 - b; 3 - a; 4 - d
57. Quyidagilardan "Mehmonnomayi Buxoro" tarixiy asarining muallifini aniqlang.
A) Muhammad Husayni Buxoriy
B) Fazlulloh ibn Ro'zbexon
C) Mirzo Muhammad Haydar
D) Hofiz Tanish Buxoriy
58. Germaniyada Otto fon Bismark mavjud davlatlarning Pruessiya bilan "Shimoliy Germaniya Ittifoqi"ni tuzish haqida shartnoma imzolashga erishgan yili vatanimiz tarixida sodir bo'lgan voqeani aniqlang.
A) Buxoro taxtiga Amir Muzaffar o'tirdi.
B) O'ratepa shahri rus askarlari tomonidan egallandi.
C) Kaspiyorti viloyati tashkil topdi.
D) Qo'qon shahrida Po'latxon boshchiligidagi qo'zg'olon ko'tarildi.

59. Fransiya hukumati 1919-yilda Jazoir uchun chiqargan alohida dekretiga asosan mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlariga o'tkaziladigan saylovlarda qatnashish huquqi berilgan qatlamlarni aniqlang.
1) dehqonlar; 2) hunarmandlar; 3) savdogarlar; 4) ziyolilar; 5) ishchilar; 6) sobiq harbiy xizmatchilar; 7) ruhoniylar; 8) amaldorlar
A) 1, 2, 5, 6, 7 B) 1, 3, 4, 6, 8
C) 3, 4, 5, 6, 7 D) 1, 2, 3, 5, 6

60. X.Kolumb ochgan qit'aga "Yangi dunyo" deb nom bergan dengizchi qayerlik edi?
A) *genuyalik* B) *lotaringiyalik*
C) *italiyalik* D) *portugaliyalik*

61. XVIII asrning II yarmidan boshlab Rossiya savdo iqtisodiy aloqalarida Markaziy Osiyo xonliklarining ahamiyati yanada ortib bordi. Bunga sabab nimada edi?
1) Ingliz mollarning Markaziy Osiyoga kirib kelishi tobora ko'payishi;
2) Rossiyada rivojlanib borayotgan sanoat uchun xomashyo manbalari topishga intilish;
3) Hindistonda Buyuk Britaniya ta'sirining kuchayib borayotganligi;
4) Rossiya aholisining Markaziy Osiyodan keltirilgan mollarga ehtiyoji balandligi va mollarning nihoyatda arzonligi;
5) Markaziy Osiyo xonliklarida inglizlar ta'sirining kuchliligi va xonliklarning inglizlar bilan ittifoqini yo'qqa chiqarish zaruriyati;
6) Xonliklarning suv orqali savdo qilishda Rossiyaga qulayligi va savdo portlarining doimo ruslar uchun ochiqligi.
A) 2, 3 B) 1, 5 C) 2, 6 D) 4, 6

62. Katolik cherkovi o'z hukmronligining eng cho'qqisiga erishuvi qaysi Papa davriga to'g'ri keladi?
A) *Lev III* B) *Grigoriy IX*
C) *Innokentiy II* D) *Innokentiy III*

63. "Xitoy uyushmalari ittifoqi" siyosiy tashkiloti qabul qilgan dasturida ko'zda tutgan masalalar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.
1) Sin monarxiyasini ag'darish;
2) yevropaliklarni mamlakatdan quvib chiqarish;
3) respublika ta'sis etish;
4) sanoat korxonalarini barpo etish;
5) yerga egalik huquqini tenglashtirish;
6) mustaqillikni tiklash
A) 1, 2, 4, 6 B) 2, 4, 5, 6 C) 1, 3, 5, 6 D) 2, 3, 4, 5

64. XIX asrning birinchi yarmida Xiva xonligi va Buxoro, Qo'qon, Afg'oniston, Eron, Hindiston, Turkiya kabi davlatlar o'rtasida savdo-iqtisodiy va elchilik munosabatlarining rivojlanishi sabablarini aniqlang.
1) Xiva xonligi hududining o'rtaosiyolik savdogarlar va haj safariga boruvchilar uchun Kaspiy dengizi orqali boshqa shaharlarga o'tish manzilgohiga aylanganligi; 2) Raim istehkomining qurilishi; 3) turkmanlarning yovmut qabilasining Xiva xonligiga bo'ysundirilishi; 4) savdoning rivojlanishi davlat xazinasiga katta daromad keltirayotganligi; 5) «Majburiyatlar akti»ning qabul qilinishi
A) 1, 2 B) 4, 5 C) 1, 4 D) 2, 3

65. Chig'atoy ulusi davriga oid me'moriy obidalarini aniqlang.
1) To'rabekxonim maqbarasi; 2) Bayonqulixon maqbarasi; 3) Nomozgoh masjidi; 4) Ernazar elchi madrasasi.
A) 3, 4 B) 2, 3 C) 1, 2 D) 1, 4

66. Avstriya-Vengriya imperiyasidagi Praga universitetida o'qitish ikki tilda (nemis va chex) olib borilishi belgilangan yili Italiya ...
A) *Adua yaqinida Efiopiya qo'shinlaridan mag'lub bo'ldi.*
B) *Germaniya va Avstriya-Vengriya ittifoqiga qo'shildi.*
C) *Afrikaga qarshi mustamlakachilik urushlarini boshladi.*
D) *Tunis masalasida Fransiyaning mag'lub bo'ldi.*

67. Germaniya Bag'dod temir yo'li loyihasining Izmir-Anqara qismini qo'lga kiritgan va bu loyihani to'la qo'lga kiritgan yillar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.
A) 1888-, 1903-yillar B) 1889-, 1904-yillar
C) 1888-, 1905-yillar D) 1889-, 1902-yillar

68. Italiyada "qizil ikki yillik" davriga to'g'ri keluvchi ma'lumotlarni anilang.
1) 8 soatlik ish vaqti belgilandi; 2) hukumat ishchi va dehqonlardan shakllantirildi; 3) ish haqiga qo'shimcha to'lov to'lanishi e'lon qilindi; 4) yer egalariga yollanib ishlovchilar, ijaraga yer olib ishlovchilar uchun shartlar yengillashtirildi; 5) janubdagi dehqonlar yer egalaridan tortib olgan yerlarining bir qismi ularga qonuniylashtirib berildi; 6) dehqonlar soliqlardan vaqtincha ozod etildilar.
A) 2, 3, 5, 6 B) 1, 3, 4, 5
C) 1, 2, 4, 5 D) 1, 2, 4, 6

69. Quyidagi qaysi davlatlarning kommunistik partiyalari antifashist harakatga rahbarlik qildilar?
A) *Yugoslaviya va Albaniya*
B) *Polsha va Chexoslovakiya*
C) *Ruminiya va Yugoslaviya*
D) *Polsha va GDR*

70. Birinchi jahon urushidan keyingi davrda Buyuk Britaniya hayotini belgilash quyidagi qaysi partiyalar o'rtasidagi kurashga bog'liq bo'lib qoldi?
A) *sotsialistlar, liberallar va konservatorlar*
B) *konservatorlar, demokratlar va leyboristlar*
C) *liberallar, konservatorlar va leyboristlar*
D) *liberallar, sotsialistlar va demokratlar*

71. XIX asr oxirlarida Rossiya Buxoro amirligi hududlari orqali Afg'onistonga qanday buyumlarni katta miqdorda chiqarib turgan?
1) temir; 2) movut; 3) farang matolari; 4) chinni buyumlar; 5) baxmal; 6) mo'yna; 7) chit; 8) g'alla; 9) gugurt; 10) ke-rosin; 11) cho'qqi qalpoqlar
A) 3, 5, 7, 9, 10, 11
B) 2, 4, 5, 7, 9, 10
C) 1, 4, 5, 6, 8, 10
D) 1, 3, 4, 8, 9, 11

72. O'rta asrlarda muzaffariylar va jaloyiriylar xalqlari qayerda hukmronlik qilishgan?
A) *Iroq va Falastinda*
B) *Janubiy Xuroson va Hindistonda*
C) *Eronda*
D) *Suriyada*

INGLIZ TILI

73. Choose the correct tense.
We ... at the painting for about ten minutes before we ... who the artist was.
A) *have been looking/ realized*
B) *were looking/ have realized*
C) *had been looking/ realized*
D) *had looked/ had realized*

74. Choose the best answer.
The student apologized ... being late.
A) *to* B) *at* C) *of* D) *for*
75. Choose the correct answer.
... hard you try, you cannot succeed without the support of your family.
A) *However* B) *Although*
B) C) *Despite* D) *Because of*
76. Choose the correct answer.
I ... dinner. Just as it was ready, Chris and June phoned to say that they wouldn't to eat.
A) *didn't have to cook* B) *needn't cook*
C) *needn't have cooked* D) *mustn't have cooked*
77. Choose the best answer.
There is neither electricity nor gas on the island, ...?
A) *is there* B) *isn't there* C) *there is* D) *there isn't*
78. Choose the best answer.
If you... these pills yesterday, you ... well now.
A) *had taken / would be* B) *took / would be*
C) *had taken / had been* D) *took / will be*
79. Choose the correct answer.
We're going on a holiday ... by a travel company. It includes accommodation, flights, and so on.
A) *arranging* B) *is arranged*
C) *arranged* D) *having arranged*
80. Choose the best answer.
Grandma ... a lot of pleasure from gardening.
A) *does* B) *makes* C) *gets* D) *has*
81. Choose the best answer.
If everyone is more careful, mistakes can be...
A) *invented* B) *reduced*
B) C) *caused* D) *avoided*
82. Choose the answer which correctly completes the sentence.
I wouldn't walk across that old bridge if I were you. It looks like it...
A) *will collapse* B) *is going to collapse*
C) *is collapsing* D) *will be collapsed*
83. Choose the correct answer.
... five hours to the meeting, Don learnt that it had been postponed.
A) *Driven* B) *Being driven*
C) *Having driven* D) *To be driven*
84. Choose the correct answer.
It's not my favorite job, but I like ... the kitchen as often as possible.
A) *cleaning* B) *clean* C) *to clean* D) *that I clean*
85. Choose the best answer.
"May I have my letters addressed in care of your office?" asked Mr. Taylor. Mr. Taylor asked if ... letters addressed in care of ... office.
A) *he may have his / my* B) *I might have my / your*
C) *he may have his / his* D) *he might have his / my*
86. Choose the correct answer.
Barbara said the beach was twenty miles away, but I thought, it was ... than that.
A) *little* B) *fewer* C) *less* D) *the least*

87. Choose the correct answer.
